Qabul qilindi: 13-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 15-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 17-noyabr 2026-yil

BO‘LAJAK QORAQALPOQ TILI VA ADABIYOTI O‘QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK KOMPETENSIYASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Abdurazakova Nurjamal Salimatdinovna

Urganch RANCH texnologiyalar universiteti Nukus kompusi katta o‘qituvchisi, p.f.f,d.(PhD)

E-mail: abdirazakovanurjamal@gmail.com

Orcid: 0009-0009-2220-2299

Annotatsiya. Ushbu maqolada mediatexnologiyalar vositasida bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentsiyasini integrativ takomillashtirishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilingan. kasbiy faoliyatdagi ahamiyati, ularni qoraqalpoq tili va adabiyoti ta’lim jarayonida samarali rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar hamda innovatsion o‘qitish metodlarining imkoniyatlari yoritilgan. Oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentsiyasini integrativ o‘qitishning ijodiy yo‘nalishini amalga oshirishning didaktik shart-sharoitlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsion pedagogika, kreativ pedagogik yondashuv, mediatexnologiyalar, qoraqalpoq tili va adabiyoti fani, kasbiy-metodik kompetentsiya, integrativ takomillashtirish, kommunikativ kompetensiya, hamkorlik, kreativ fikrlash, muammoni hal etish, innovatsion ta’lim.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и методические основы интегративного совершенствования профессионально-методической компетентности будущих учителей каракалпакского языка и литературы посредством медиатехнологий. Раскрываются значение медиатехнологий в профессиональной деятельности, педагогические подходы, способствующие их эффективному

использованию в образовательном процессе преподавания каракалпакского языка и литературы, а также возможности инновационных методов обучения. Особое внимание уделяется дидактическим условиям реализации творческого направления интегративного обучения, направленного на развитие профессионально-методической компетентности будущих учителей каракалпакского языка и литературы в системе высшего образования.

Ключевые слова: инновационная педагогика, креативный педагогический подход, медиатехнологии, каракалпакский язык и литература, профессионально-методическая компетентность, интегративное совершенствование, коммуникативная компетентность, сотрудничество, креативное мышление, решение проблем, инновационное образование.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of the integrative enhancement of the professional and methodological competence of prospective Karakalpak language and literature teachers through media technologies. It explores the significance of media technologies in professional practice, pedagogical approaches that contribute to their effective integration into the teaching and learning process of Karakalpak language and literature, and the potential of innovative teaching methods. Particular attention is paid to the didactic conditions required for implementing the creative dimension of integrative instruction aimed at developing the professional and methodological competence of prospective Karakalpak language and literature teachers in higher education.


Keywords: innovative pedagogy, creative pedagogical approach, media technologies, Karakalpak language and literature, professional and methodological competence, integrative enhancement, communicative competence, collaboration, creative thinking, problem-solving, innovative education.

KIRISH

Jahondagi globallashuv jarayonlari o‘rtasidagi mavjud chuqur raqobat muhiti ta’lim mutaxassislarni ham favqulodda shunga tayyor bo‘lishlarini talab etadi. Ular nafaqat o‘z g‘oyalarini rivojlantirish va yaratilgan nazariy modellarini amalda joriy etish uchun qulay

sharoitlarni ta’minlaydilar, shu bilan birga, ta’limning innovatsion rivojlanishi uchun ham muhim intellektual omil hisoblanadilar

Ma’lumki, bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentsiyasini pedagogik innovatsion rivojlantirishda ta’lim sifati muhim rol o‘ynaydi. Yuqori bilimga ega bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentsiyasini pedagogik innovatsion rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot ishlanmalari bilan shug‘ullanish, yangi mahsulot turlarini yaratish va texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.



Bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentsiyasini pedagogik innovatsion rivojlantirishning yuqori bilim darajasini ta’minlovchi eng muhim ahamiyatli resurs – pedagogik kadrlar hisoblanadi. Ularning malakasi, kasbiy darajasi, pedagogik mahorati, kommunitabelligi qoraqalpoq tili va adabiyoti fanni tizimli bilishi, bilimini yuqori darajada ta’minlash imkonini beradi. Aynan shuning uchun bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentsiyasini pedagogik innovatsion rivojlantirishda ularni samarali boshqarish usullarini takomillashtirishi zarur. Qoraqalpoq tili va adabiyoti ta’lim sifatini ta’minlashga e’tiborni qaratish, ular bilan o‘zaro aloqadorlik samaradorligini oshirish, hamda faoliyati natijalaridan manfaatdorligini ta’minlash zarur

Qoraqalpoq tili va adabiyoti ta’limini rivojlantirish mamlakat rivojlanishiga xizmat qiladi. Intellektual resurslarning yuksak darajasiga asoslanuvchi mediatexnologiyalarning taraqqiy etishi va ushbu fan tarmoq resurslarga egalik qilishni istagan davlatlarning raqobati XXI asrda nafaqat iqtisodiy tomondan, balki ijtimoiy va siyosiy yuksalishning asosiy omili bo‘lib xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyo mamlakatlaridagi eng yuqori reytingga ega oliy ta’lim dargohlarini tahlil etadigan bo‘lsak, ularning barchasi rivojlangan davlatlar hududida joylashgan va ta’kidlash lozimki, ular o‘z mamlakatlarining dunyo hamjamiyatidagi o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ular tomonidan o‘qitilgan mutaxassislarga mehnat

bozorida yuqori talab bo‘lishi bilan birga, dunyo ahamiyatiga ega kashfiyotlar va tadqiqotlarning salmoqli ulushi aynan ushbu universitetlarga to‘g‘ri keladi.

MUHOKAMA

Bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentsiyasini pedagogik innovatsion rivojlantirishda ta’lim sifatini oshirish quyidagi maqsadlarga erishishni nazarda tutadi:

– innovatsion axborot mahsulotlarini ishlab chiqish;

– bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentsiyasini pedagogik innovatsion rivojlantirishning zamonaviy usullarini joriy etish asosida innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish;

– qoraqalpoq tili va adabiyoti ta’lim sifati va uzluksizligini ta’minlash;

– bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining pedagogik innovatsion rivojlantirishda kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borish;

– yangi texnologiyalarda foydalanish asosida o‘quv jarayonini uzluksiz takomillashtirib borish;

– qoraqalpoq tili va adabiyoti fanini kasbiy masalalarni yechishga bo‘lajak qoraqalpoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarining ijodiy yondashadigan va mas’uliyatli qilib tarbiyalash.

M.Larionov o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyati tarkibining funktsional modelini uchta nuqtai nazar bo‘yicha tasniflaydi:

– mustaqil pedagogik faoliyat;

– ilmiy-pedagogik faoliyat;

– ilmiy-tadqiqot faoliyati.

NATIJA

R.N.Yusufbekova pedagogik nuqtai nazardan innovatsion jarayon tuzilmasi.

1. Sohada namoyon bo‘layotgan yangilikni ajratib ko‘rsatuvchi blok (unda pedagogikadagi yangi g‘oyalar, pedagogik yangiliklarning tasnifi, ularni asoslashga xizmat qiladigan shart-sharoitlar, yangilik darajasini belgilovchi me’yorlar, pedagoglarning yangiliklarni o‘zlashtirish va unan amaliyotda samarali foydalanishga tayyorliklari,

an’analar va novatorlik tashabbuslari, sohada yangiliklarni yaratish bosqichlari aks etadi).

2. Pedagoglar tomonidan yangilikning idrok qilinishi, o‘zlashtirilishi va baholanishi ifodalovchi blok (unda pedagogik jamoalar tomonidan yangiliklarning baholanishi va o‘zlashtirilishi – turli innovatsion jarayonlar, konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamoalarning yangilikni idrok etish va baholashga tayyorliklari aks etadi.

3. Yangilikdan foydalanish va uni joriy etish bloki (unda yangilikni amaliyotga tadbiq etish va ulardan samarali foydalanish hodisasi ro‘y beradi). Bu o‘rinda M.M.Potashnik tomonidan e’tirof etilgan innovatsiya jarayonlar mohiyatini ifodalovchi talqin alohida ahamiyatli ekanligini ko‘rsatish o‘tish maqsadga muvofiqdir. Mazkur talqinga ko‘ra innovatsion jarayon quyidagi tuzilmalarga ega.

Innovatsion jarayon tuzilmalari. Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalardan iborat bo‘lish bilan birga muayyan qonuniyatlarga ham bo‘ysunadi. Mazkur jarayon uchun quyidagi to‘rtta qonuniyat tavsifli sanaladi.

1. Pedagogik innovatsion jarayon qonuniyatlari. Keskin beqarorlik qonuniyatiga ko‘ra pedagogik jarayon va hodisalar to‘g‘risidagi yaxlit tasavvurlar o‘zgaradi, shakllangan pedagogik yangilik baholanadi va bu yangilikning ahamiyati, qiymati e’tirof etiladi.

2. Amalga oshish qonuniyati yangilikning hayotiyligini ifodalaydi, unga ko‘ra yangi pedagogik innovatsiyalar stixiyali yoki ongli ravishda o‘ta tezkor yoki tezkor ravisha amaliyotga tatbiq etilai.

3. Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuniyati aksariyat pedagoglarda yangicha tafakkurning qaror topganligini va ularning innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish yo‘lida faollik ko‘rsatishlarini tavsiflaydi. Bu jarayonda dastlab innovatsion tavsif kasb etgan g‘oyalar yanada ilg‘or yangiliklarni amalga oshirishsh yo‘lida to‘siq bo‘la boshlaydi.

4. Pedagogik innovatsiyalarning davriy takrorlanishi va qaytarilishi qonuniyati yangiliklarning yangi, yanada qulay sharoitlarda qayta tiklanishini ifodalaydi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi ikki xil kechadi, pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi,

ya’ni, innovatsion jarayonda pedagogik yangiliklarga bo‘lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, ularni amaliyotga tatbiq etishda mavjud shart-sharoitlar, usul va yo‘llariga ongli munosabat bildirilmaydi. Pedagogik innovatsiyalarning amaliyotga tatbiqi stixiyali kechadi, ya’ni, pedagogik yangiliklar innovatsion jarayonda ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsuli sifatida amaliyotga joriy etiladi. Ta’lim innovatsiyalarini pedagogik jarayonga tatbiq etish bir necha bosqichlarda kechadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat-T.: TDPU. 2006. 289-b.

2. Akhmedova M.E.Methodological classification of independent study tasks from mother language in continuous education. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research (ISSN – 2771-2141) VOLUME 04 ISSUE 03 PAGES: 135-148-p. SJIF IMPACT FACTOR (2024 - 8.166). Crossref doi: https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue 03-18. (Web of saynes).

3. Axmedova M.E. Oliy ta’limida o‘quv va mustaqil ta’lim topshiriqlarini takomillashtirish vazifalari. Havola: https://gri-journal.uz Belarus–O‘zbek ilmiy-metodik jurnali. 2025 yil № 1-son. 180-187- bet. ISSN 2181-2896 . Havola: https://gri-journal.uz. (OAK)

4. Axmedova M.E., Altibayeva M.Lingvistik kompetentsiyalarni rivojlantirishda raqamli resurslar va o‘z-o‘zini baholash metodikasi. Til va adabiyot uz ilmiy metodik elektron jurnal. 2025 yil 18 noyabr. № 19-son. 69-70 bet. (OAK)

5. Axmedova M.E. I. Tsay, T. Baituraev, G. Sharipova, S. Davlatov, Kh. Djumayeva, I.Rakhmatova. Adopting Agile Practices to Enhance Library Services and User Engagement in Modern Library Management. Indian Journal of Information Sources and Services ISSN:) Vol.16, No.1, 2026, pp.823-828 © The Research Publication, www.trp.org.in DOI: https://doi.org/10.51983/ijiss-2026.16.1.85. (Skopus).

6. Axmedova M.E., Sh. Kurtieva,, D. Achilov., G.Qurbonova., Sh. Kurbanova., A.Najmitdinov. Health Risks Associated with Habitat Loss and Fragmentation in Public and

Animal Health Implications for Infectious Disease Transmission. 153-168-p. Havola: Journal of Animal http://www.aejournal.irhttp://www.aejournal.ir. Environment (E-ISSN 2717-1396, ISSN 2717-1388) Journal homepage: Received: Accepted: 15 April 2025 (DOI): 10.70102/AEJ.2025.17.1.18 . (Web of saynes)

7. Axmedova M.E. Modul kredit tizimida ona tili fanlaridan mustaqil topsghiriqlar tuzish metodikasi. T.: 2025 yil. Firdavs shoh nashriyoti. 178-b.

8. Кудрявцев П.О. Проблемное обучение: истоки и сущност-Знание: 1991.456-с.

9. Ishmuxammedov R.J. “Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari” – T.: 2000. 340-b.

10. Muminov K.A., “Raqamli-forsayt texnologiyalari sharoitida talabalar ta’lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish metodikasini takomillashtirish”, Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi, ISSN: 2181-1695, 5-oktabr 2026-yil.208-210-bet.

11. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar -T.: Moliya nashr., 2003. 215-b.

12. Tolipov O‘., Usmanbaeva K.M. Pedagoik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari -T.: TDPU. 2006. 230-b.

13. Бабко Г. И. Модулные технологии обучения. Теория и практика проектирования / Г.И. Бабко. - М.: РИВШ, 2016. - 904 с.

14. Usmonov B.Sh., Habibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

15. Gulobod Qudratulloh qizi., R.Ishmuhamedov., M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – S: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

16. Гуслова, М.Н. Инновационные педагогические технологии: Учебник / М.Н. Гуслова. - М.: Асадемиа, 2018. - 672 с.

17. Матяш Н.В. Инновационные педагогические технологии: Проектное обучение: Учебное пособие / Н.В. Матяш. - М.: Асадемиа, 2017. - 422 с.

18. Muminova N.S., Kvest-texnologiyasi asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining

loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Til va adabiyot.uz til va adabiyot.uz. ilmiy-metodik elektron jurnal, 2026-yil, 30-oktabr 20(88)-son.51-54-b.

